




ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

# Til va adabiyot. uz

«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературе – Language and literature teaching» ((<https://tilvaadabiyot.uz>))

<https://oak.uz/pages/4802>

2023-yil. 5-son



|                                                                                                                                                                                 |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Shaxribon Musurmankulova.</b> "Uztkrfraz" parallel korpusi ma'lumotlar bazasini shakllantirish texnologiyasi .....                                                           | 84  |
| <b>Zarina Ro'zimurodova.</b> "Londonjon" haqida nimalarni bilasiz? .....                                                                                                        | 86  |
| <b>Dilfuza Shadiyeva.</b> Zamonaviy o'zbek she'riyatida qo'llangan tajnis san'atining lisoniy xususiyatlari .....                                                               | 87  |
| <b>Akmal Tursunov.</b> Yasama so'zni o'rganishning morfologik bosqichlari .....                                                                                                 | 89  |
| <b>Назира Ахмедова.</b> Художественная культура, как фактор развития индивидуальности и воспитания личности студентов технических высших учебных заведений .....                | 90  |
| <b>Исхақжон Исмаилов.</b> Тарихнависликка эътиборнинг асар бадиятида тутган ўрни .....                                                                                          | 92  |
| <b>Мухаббат Юсупова.</b> Сценарий (скрипт) как динамическая когнитивная единица .....                                                                                           | 94  |
| <b>Dilnavoz Yusupova.</b> Alisher Navoiy ijodida shayxlar zikri va ma'rifatulloh talqini .....                                                                                  | 97  |
| <b>Фотима Ярқулова.</b> Развитие речи на занятиях по русскому языку как иностранному на этапе предвузовской подготовки .....                                                    | 100 |
| <b>Nafisa Sattorova.</b> Shortened words and their types in English and Uzbek .....                                                                                             | 103 |
| <b>Шахзода Эгамбердиева, Фарида Эгамбердиева.</b> Соотношение концепций «коммуникативная стратегия» и «манипулирование» в рекламном дискурсе .....                              | 105 |
| <b>Sharofiddin Jalilov.</b> Otanazar Muso Mutavalli Kamoliy va uning devonining o'rganilishi .....                                                                              | 108 |
| <b>Dilfuza Shakirova.</b> O'zbekiston ta'lim bozorida milliy brendning rivojlanishi tahlili .....                                                                               | 109 |
| <b>Gulshan Ishankulova.</b> Yurtimizdagi ko'plab geografik joy nomlarining lingvistik tahlili .....                                                                             | 111 |
| <b>Dilbar Nigmatova.</b> Ixtisoslashgan nashrlarda til va uslub jihatdan tahlil masalalari .....                                                                                | 113 |
| <b>Gavxar Axmedova, Maxbuba Ummatova.</b> Talabalar matematik kompetentligini rivojlantirishda masalaviy yondashuvning ahamiyati .....                                          | 114 |
| <b>Mukhayyo Atadjanova.</b> Different approaches to the definition of the concept of "discourse" .....                                                                          | 116 |
| <b>Vohida Yuldosheva.</b> Evfemizmlar madaniyatlararo muloqotning obyekt sifatida .....                                                                                         | 118 |
| <b>Pardatursun Qurbonov.</b> Fanlararo integrativ yondashuv asosida o'quvchilarning kasb-hunar tanlash kompetensiyalarini rivojlantirishning asoslari .....                     | 121 |
| <b>O'tkir Bozorov.</b> Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining shaxsiy va professional sifatlarini takomillashtirishda ta'lim texnologiyalarining o'rni va ahamiyati ..... | 122 |
| <b>Malika Suyunova.</b> Xalq badiiy tilining Hamza she'riyatida tutgan o'rni .....                                                                                              | 125 |
| <b>Oydin Shuxratova.</b> Bolalar folklorining o'zbek xalq og'zaki ijodiyotidagi o'rni .....                                                                                     | 127 |
| <b>Nilufar Sultonova.</b> O'zbek romanlarida postmodernistik suyet tamoyillari .....                                                                                            | 129 |
| <b>Hulkar Isroilova.</b> Abdulla Qahhor asarlarida erkak va ayol nutqidagi gender tafovutlar, disfemizm va evfemizmnin qo'llanilishi .....                                      | 131 |
| <b>Ra'no Madjidova, Eldor Khusanov.</b> Ingliz va o'zbek tillarida sheva va dialekt tushunchalarining qo'llanilish usullari .....                                               | 133 |
| <b>Moxiraxon Usmonxodjayeva.</b> Chet til darslarida o'quvchilarni madaniyatlararo muloqot qilish ruhida tarbiyalash .....                                                      | 135 |
| <b>Ra'no Kasimova, Gulruh Olimova.</b> Hojiakbar Shayxovning "Ikki jahon ovarasi" asarida qahramonlar ruhiyati .....                                                            | 137 |
| <b>Maftuna Rahimova.</b> Ikki tovushli so'zlarda ifodalovchi strukturasi .....                                                                                                  | 139 |
| <b>Fariza Ruzimurodova.</b> The impact of deconstruction on the quality of literary translation .....                                                                           | 141 |

#### ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

|                                                                                                                          |     |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>S.Abdullayeva.</b> Chet tilini o'qitishda loyihalash modeli .....                                                     | 143 |
| <b>Ziyoda Bazarova.</b> Neyrodidaktika yordamida o'quvchilarning lisoniy kompetentligini shakllantirish muammolari ..... | 145 |
| <b>Adiba Davlatova.</b> Abdulla Oripov poetik tafakkurining adabiy-estetik ildizlari .....                               | 147 |

#### TAHLIL

|                                                                                           |     |
|-------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Zuhra Qarshiboyeva.</b> Sohaga oid terminlarning imlosi masalalari .....               | 150 |
| <b>To'ra Toshmuhammad Zarif.</b> Hofiz Xorazmiy hayoti va adabiy muhit .....              | 151 |
| <b>Muhabbat Ruzmetova.</b> Biznes ingliz tilini o'qitishning lingvodidaktik aspekti ..... | 153 |

#### KICHIK TADQIQOT

|                                                                                                                                                                           |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Nodira Baxramova.</b> Gorizontalar harakat fe'llarining ma'no tuzilishi .....                                                                                          | 155 |
| <b>Dildora Yorbulova.</b> "Qurbon" hikoyasining gap strukturasi tahlili .....                                                                                             | 156 |
| <b>Gavxar Qurbonova.</b> Olamning milliy lisoniy manzarasida astronomlar .....                                                                                            | 158 |
| <b>Shohista Mahmudova.</b> Muallif va badiiy asar munosabati .....                                                                                                        | 160 |
| <b>Qobil Egamnazarov.</b> Yadro predikativ 1 (np1) o'rnida kelgan noaniq olmoshlar ifodalangan sintaksemalar .....                                                        | 162 |
| <b>Shamsiddin Primov.</b> Kichik hajviy publitsistik janrlar kommunikativlik xususiyatlari .....                                                                          | 163 |
| <b>Mirshod Eshonkulov.</b> Xushboq Rahim lirikasida poetik nutqning yetakchi xususiyatlari .....                                                                          | 165 |
| <b>Shahribonu Hamrayeva.</b> Alisher Navoiy obrazining o'zbek adabiyotida ifodalanishi .....                                                                              | 167 |
| <b>Muxayyo Rayxonova.</b> Muallif tahririda takomillik .....                                                                                                              | 168 |
| <b>Aziza Amonova.</b> PIRLS ta'lim sifatini rivojlantiruvchi va baholovchi xalqaro dastur .....                                                                           | 170 |
| <b>Aktam Gaffarov.</b> Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarning roli va ularning o'ziga xos xususiyatlari .....                                         | 171 |
| <b>Bobur Sharipov.</b> Retsiproklik tuzilishi va uning grammatik xususiyatlari to'g'risida ayrim mulohazalar .....                                                        | 173 |
| <b>Nigina Akhmedova.</b> The role of activities in improving speaking skill .....                                                                                         | 174 |
| <b>Nafosatxon Hojiyeva.</b> Ajratilgan bo'laklar gaplarni murakkablashtiruvchi vosita sifatida .....                                                                      | 175 |
| <b>Gulrukh Doniyorova.</b> The significance of microbiological terms related to coronavirus vocabulary .....                                                              | 177 |
| <b>Orzigul Ablakulova, Sohila Aminova.</b> Video lessons and teacher's role in this type of lessons .....                                                                 | 178 |
| <b>Dilorom Yuldasheva.</b> Subyektning mavhumlik darajasi va kontekstlarda namoyon bo'lishi .....                                                                         | 180 |
| <b>Umida Azimova.</b> Oliy ta'lim muassasalarida Muqimiy asarlarining o'qitilishi .....                                                                                   | 182 |
| <b>Muxlisa Muhitdinova.</b> Muqimiy asarlarida iqtisodiy terminlarning qo'llanilishi .....                                                                                | 184 |
| <b>Dilafroz Nazarova.</b> Huvaydo ijodida an'anaviy obrazlar talqini .....                                                                                                | 186 |
| <b>Feruza Ermatova.</b> Nazar Eshonqul asarlarida ma'nodosh so'zlar .....                                                                                                 | 188 |
| <b>Bahoroy Eshmanova.</b> O'zbek xalq maqollarida nutq madaniyatining milliy madaniy xususiyatlari .....                                                                  | 192 |
| <b>Nigora Erkinova.</b> She'riyatda xalqona motiv va an'analar ifodasi .....                                                                                              | 194 |
| <b>Dilshodjon Tirkashev.</b> Somerset Moyemning "The moon and sixpence" ("Oy va olti penni") romanida badiiy obrazlar yaratishda stilistik vositalardan foydalanish ..... | 196 |
| <b>Malika Rajapova.</b> Allegorik vositalarning lingvokognitiv va lingvopragmatik xususiyatlari .....                                                                     | 197 |
| <b>Mazmuna Otayeva.</b> O'zbek va ingliz tillaridagi fe'l semantik kategoriyalari bo'yicha tuzilgan graduonimik qatorlarning o'xshash va farqli jihatlari .....           | 198 |
| <b>Nodirakhon Khatamova.</b> Advantages and challenges of integrating social media into foreign language learning .....                                                   | 199 |
| <b>Yulduz Jovliyeva.</b> Mahmudxo'ja Behbudiy ijodiy merosining yosh avlod ta'lim-tarbiyasidagi ahamiyati .....                                                           | 201 |
| <b>Tojixon Sabitova.</b> Alisher Navoiy olimlar haqida .....                                                                                                              | 202 |

tida samarali ishlashga yordam beradi. Shunday qilib, o'qituvchi nafaqat leksik va grammatik komponentlar haqidagi bilimlarni, balki o'quvchilarning matnni qay darajada idrok etganliklarini ham tekshira oladi.

Odatda, vazifa bir necha bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich. Vaziyat, uning xususiyatlari bilan tanishish.

2-bosqich. Asosiy muammoni (yoki muammolarni) ta'kidlash.

3-bosqich. Aqliy hujum uchun tushunchalar yoki mavzularni taklif qilish.

4-bosqich. Ish natijalarini tahlil qilish.

5-bosqich. Ishni hal qilish – bu harakatlar ketma-ketligi uchun bir yoki bir nechta variantni taklif qilish.

Bunday vazifalar jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun yaxshi platformadir. Usulni o'quvchilar muammoni hal qilish uchun zarur bo'lgan asosiy tamoyillarga ega bo'lganda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

O'qituvchi vaziyatni nazorat qilishi, har bir ishtirokchi o'zini namoyon qila oladigan do'stona muhit yaratishi kerak. Agar o'qituvchi munozarada passivlikni sezsa, u bir muddat jamoaning a'zosi bo'lib, topshiriqning borishini o'z misolida ko'rsatishi kerak.

Taklif etilgan muammoni hal qilish yo'llarini muhokama qilish nafaqat tilni bilishni, balki o'quvchilarning ke-lajak hayotiga zarur ko'nikmalarni egallashiga yordam beradi.

Bunday muammolarni hal qilish uchun biz nevrologiya fanining eng so'nggi yutuqlarini o'quv jarayoniga kiritishni maqsadga muvofiq, deb bilamiz.

Xulosa, neyrodidaktika usullari kognitiv faoliyatni faollashtirishga yordam beradi, zamonaviy jamiyat uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar: natijalarni sharhlashni, lingvistik, kommunikativ va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni ta'minlaydi, tanqidiy fikrlashni va shaxslararo muloqot doirasini rivojlantiradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bolotnaya T.M. K voprosu razvitiya soderjaniya ponyatiya «yazykovaya kompetensiya» v istorii lingvistiki i teorii obucheniya inostrannym yazykam. Gumanitarnoe obrazovanie v texnicheskix vuzax. 2013. № 27. S. 20–30.
2. Uluqov N. Ta'limda *lingvistik kompetentlik*. – Toshkent: "Press", 2012. 206-bet.
3. Raximov O.D. va boshqalar. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: "Fan va texnologiya nashriyoti", 2012. 189-bet.
4. Astafurova T.N. Interaktivnaya kompetensiya v professionalno znachimyx situatsiyax mejkulturnogo obsheniya // Aktualnye problemy prepodavaniya perevoda i inostrannykh yazykov v lingvisticheskom vuze: Sb. nauch. trudov. Vyp. 423. – M.: MGLU, 1996.;
5. Pyrkova T.A. formirovanie lingvisticheskoy kompetensii studentov neyazykovogo vuza sredstvami teatralizatsii. Diss... kand.ped.nauk. – yekaterinburg, 2018. – 124 c.
6. Dortman S.R. «Obuchenie lingvokulturologicheskoy kompetensii uchashixsya srednix professionalnykh obrazovatelnykh uchrejdeniy (na materiale mediatekstov)»: Diss....kand.ped.nauk.–Pyatigorsk, 2012 g. –s.
7. Podlinyaev O.L. Sovremennaya sotsiolingvistika. Teoriya, problemy, metody. –M., 2013. –s

**Adiba DAVLATOVA,**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti,  
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent*

## ABDULLA ORIPOV POETIK TAFAKKURINING ADABIY-ESTETIK ILDIZLARI

Jahon adabiyotshunosligida ijodkor adabiy-estetik tafakkuri, ijodiy konsepsiyasi to'g'risida ilmiy-nazariy masalalar mavjud. Bulardan biri muayyan ijodkorning o'ziga xosligini ta'minlovchi poetik mazmun va tafakkur yangilanishi hodisasiga munosabatdir. Poetik tafakkur tushunchasi dastlab Aristotel qarashlarida uchraydi. Bu tushunchaning yangi ko'rishlari zamonaviy ilmda Xaydegger, fransuz faylasufi va adabiyotshunosi Jak Derrida tadqiqotlarida namoyon bo'ldi.[4] U falsafa va she'riyatning o'zaro yaqinligi haqida fikr bildirib, falsafiy matnning (bu erda she'riyatga urg'u berilgan) tuzilishi, matn turlarining o'ziga xosligi va xilma-xilligi, ta'sir qilish va yaratish modellari bo'yicha o'rganish lozimligi to'g'risidagi tezisni ilgari suradi.

Dunyo adabiyotidagi poetik tafakkur tadriji masalasi-ni olimlar ijod psixologiyasi, ijodiy laboratoriya, lirik qahramon va shoir birligi asosida tahlil qilish muammosiga ahamiyat qaratadilar. Aslida iste'dodli ijodkor o'zidan oldingi an'anani inkor etmagan holda, mutlaqo yangi mezon va yondashuvlarni adabiyotga olib kiradi. Bu esa badiiy adabiyot, adabiy jarayon mazmunini ham boyitadi. Yangicha qarashlar va ifoda yo'sinining boshlovchilaridan bo'ladi.

Xalqona ijodning dastlabki tamoyillari, qat'iy an'anaviy shakllari, turlari va qisman ba'zi obrazlari keyingi badiiy tafakkur tarziga ta'sir ko'rsatdi. Matal, maqol, ertak, masal, qo'shiq janridagi asarlarda yaxshilikka intilish, yomonlikning muqarrar jazosini ko'rsatish, rostgo'ylik-

ni targ'ib etish, tabiat va jonivorlarga shafqatli bo'lish g'oyalari o'z ifodasini topgan. Bu kabi ijtimoiy va estetik ideal keyingi yozma adabiyot namunalari turli janr va obrazlarda ham namoyon bo'ldi. Xalq og'zaki ijodi namunalari xos mavzular, ertak, doston, qo'shiq, afsona janrlari motiv hamda syujetlari eng avvalo muayyan millat psixologiyasi, tafakkur tarzi va mentalitetini ifodalovchi vosita hamdir.

Shuning uchun inson yoshidan qat'i nazar xalq ertaklari, qo'shiqlari, dostonlarini tinglaganda beixtiyor sukutda qoladi. Bunda bamisoli olis safardan qadrdon uyga qaytgandek, qattiq chanqoqdan so'ngra qonib suv ichgandek hissiyot paydo bo'ladi. Qolaversa, xalq og'zaki ijodi namunalari leytmotivi, badiiyati, shakl va mazmuni kishida badiiy tafakkurni shakllantirishi bilan ham ahamiyatlidir. Aniqroq qilib aytganda, ijodga iqtidori bo'lgan shaxslarda o'z qobiliyatini kashf etishiga turtki bo'lishi mumkin. Bunga g'arb va sharq, jumladan o'zbek adabiyotida ham misollar ko'p. O'zbek xalqining o'zligi, millatning vujudga kelishi, orzu-armonlarini aks ettirgan syujet va xalq qahramonlarining tipik obrazlari keyingi davr badiiy adabiyotiga salmoqli ta'sir ko'rsatdi.

Demak, qadimiy o'zanlardan, teran tomirlardan ilhomlanish barcha zamonaviy mualliflar ijodiga ham xos xususiyatlardan biridir. Bu holat u yoki bu ijodkor asarlarining mazmunini tashkil etmasligi mumkin, lekin uning elementlari yorqin namoyon bo'lgan she'r, hikoya va qissalar mavjud. Bunday unsurlarga ertak yoki dostonga xos syujetlarning bo'laklari, boshlanmalar – sintaktik konstruksiyalar kabilarni kiritishimiz mumkin. Qolaversa, iqtidor va mashaqqatli mehnat, matn ustida tinimsiz izlanishlar yuksak asarlarning tug'ilishiga zamin tayyorlaydi. Shoir yoki yozuvchi dastlab, xalq og'zaki ijodi, keyinchalik mumtoz so'z san'ati bilan chuqur tanishuvi natijasida o'z uslubi va yo'lini topa boradi.

Aksariyat yuksak ijod vakillari tarixiy yo'lga nazar tashlaydigan bo'lsak, ijtimoiy muhitga birinchi o'rinda e'tibor qaratiladi. XX asrning o'rtalaridagi o'zbek lirikasi davr she'riyatida alohida maqomga ega. Negaki, soxtakorlik, quruq shiorbozlik davom etayotgan tarixiy bir sharoitda inson ko'ngli, qalbida kechayotgan inja tuyg'ularni ayta olish ulkan hodisa edi.

Lekin she'rlarida baribir xalqona ohanglar, tasvirdagi xalqchilik, inson va jamiyatning azaliy orzusi qaysidir nuqtalarda saqlanib qolaveradi. Masalan, "Qasam dara" kabi fojeiy, "Hangoma" (Abdulla Oripov ijodidan) singari hajviy asarlarda bu nozik chiziqlarni payqash qiyin emas. Ayrim o'rinlarda lirik qahramonning holatini tasvirlashda bunday jihatlarni kuzatish mumkin. Abdulla Oripov "Cho'pon" she'rida keng dalalar, nay navosi va suruv surudida "Alpomish" dostoniga xos kayfiyatni uyg'ota oladi. O'zbek zamini, o'zbek millati shu kichik asarda yirik planda tasvirlanadi. *Sarg'aymasin sen sevgan chaman, qurimasin sen ichgan buloq* – deya faqatgina ona yurt bag'rida haqiqiy ilhomga erishishini, shodlikka to'lishini yozadi. "Odamlar" she'rida esa

o'zbekona ruhning, tantilikning, saxovat va javonmardlikning yorqin namunasini ko'rsatadi. O'zbekchilikning yozilmagan oltin qoidasidan biri mehmonni atoyi xudo deb bilishdir. She'rda ham qo'noq va mezbon obrazlarining xatti-harakatida kimligidan qat'i nazar Odamga iltifot ko'rsatish millatimizga xos an'ana sifatida talqin etilgan. She'r finali g'oyatda go'zal. Shoir har qanday ta'ma va cheklovdan holi mehmondo'stlikni ulug'laydi. Asardan shunday xulosa chiqarish mumkin: bu mening o'zligim, milliyligim, xalqimning siymosi va hokazo.

Tun ham og'ib borar, bolalar tarqar,

Uy uyiga deydi, tepa to'yiga [2,36]

Olam va odam munosabatlarini, uyg'unligini, yaxlitligini o'rganishda eng dastlabki urinishlar xalq ijodiyotining mundarijasini tashkil etadi.

Shoirning tug'ilishi, hayot va ijtimoiy sinovlar qurshovida toblanishi, o'zligini topishi va o'quvchilari qalbidan joy olishi – bularning barchasi ijodkor badiiy tafakkuri degan tushuncha asosida birlashadi. Bunga biz ijodkor tarjimai holidagi nuqtalardan misol topamiz: "Bir kunda ikki mahal suvga chiqardik, ayniqsa, saraton kunlari Eshonquduqqa qatnash juda zerikarli bo'lardi. Yuragim siqib ketganidan bir nimalarni ming'ir-ming'ir qilib o'zimni ovutardim, shekillik", degan qaydlarda ijod uchqunlarini ko'rgandek bo'lamiz. Shunday qilib, ijodkorlik, xususan, badiiy ijod tafakkurni takomillashtirish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy tajribalar bilan anglanishi qiyin vaziyatlarni, holatlarni yetuk san'atkor badiiy obrazlar vositasida oddiy, ravon tushuntira olishi mumkin.

Yuksak ijodkorlik qobiliyati hammaga ham berilgan, lekin folklor namunalari, mif va afsonalar, yaxshilikka yetaklovchi ertaklar, odamzodning azaliy ideallari kuylangan qo'shiqlar, maqol, matallar bilan muntazam tanishib borish tafakkur tarziga ta'sir qilishi ayni haqiqat.

Asar kontekstida shoirning o'zi ham bunga ishora qilib o'tadi.

U sehrli suv qizi! Oy nurida oppoq qor,

*Tirildimi qarshimda afsonalar yo qator.* [2,34]

Shoir she'r finalida suv parisi timsolida oshiq qizning bezovta ruhiga murojaat qilar ekan, undan sargashtalikdan chekinishni so'raydi. Voqeaband she'r sirli afsonalarning nazmiy talqini kabi taassurot qoldiradi.

Abdulla Oripov to'rtliklaridagi falsafiy xulosa, maqollarning o'ziga xos badiiy tasviri, o'zbek xarakterining betakror ifodasi aslida yuksak iste'dodning xalq dahosi bilan uyg'un namoyon bo'lishi bilan izohlanadi.

*Jajji go'dak, sen tug'ilding, sen uchun*

*Kim belanchak yasab turar shu damda.*

*Kimdir senga uchqur tulpor egarlar,*

*Kimdir senga hassa yo'nar shu damda.*

Mazkur she'r g'oyasi umr haqidagi xalq donishmandligining namunasi hisoblangan bitiklar mazmunida ham uchraydi. Ertaklardagi uch kunlik dunyo to'g'risidagi savol-javoblar, umrni uch faslga ajratish – go'daklik, ba-log'at, qarilik kabilarni esga soladi. Beshik, tulpor va has-

sa predmetlari majoziy ma'noda qo'llanilgan. Abdulla Oripov lirikasida folklor elementlari, xalq og'zaki ijodi motivlari yana ko'plab uchraydi. Masalan, Afandi va afandino odamlar obrazi shoir lirikasida ham mavjud. "Afandi" she'ri dialog tarzida yozilgan bo'lib, shu kichik savol-javobda odamlar tabiatidagi qiziquvchanlik va hozirjavoblik mahorat bilan ko'rsatilgan. She'r latifaning shunchaki mazmuni emas, umuman boshqa maqsadni ko'zda tutuvchi asar. Bu yerda Afandi obrazi vositachilik vazifasida kelgan. Bu yerda lirik qahramon va Afandi obrazi uyg'unlashadi, uning qadamini poylovchi shaxslar qoralanadi.

Lekin bu bilan shoir lirikasi boshdan oxiriga qadar xalqona, baxshiyona ohanglar bilan davom etgan degan xulosaga kelmaslik kerak. Shoir adabiyotga kirib kelgan ilk yillardayoq o'z maqsadini, yo'lini, ijodiy konsepsiyasini belgilab olgan edi. Dastlab, tabiiy ravishda bolalik, o'smirlilik shuurini egallagan xalq ijodiyoti asosida shakllangan ijodiy jarayon keyinchalik oliy ta'lim, hayotiy va ijodiy tajribalar natijasida kattalashib ulkan she'riyatga aylana bordi.

Demak, ijod yo'lining avvalidayoq shoir o'ziga xos uslubni, umuminsoniy mavzularni, falsafiy mushohadani dasturlamal deb bildi. Lirikasida shoirning ruhiyati, drammatizmga boy ichki dunyosi, nozik va o'z navbatida qat'iy tuyg'ularining soylari ko'rinib turadi. Abdulla Oripov favqulodda zakiy, samimiy inson, yuksak ijodiy mahorat va badiylikka ega shoir sifatida zamondoshlaridan ancha ilgari ketgan edi. Shuning uchun ham adabiyotshunoslari, muxlislar va shogirdlar yangi o'zbek she'riyatiga qo'shgan hissiy qarshisida mudom hayrat va e'tirofdadir.

Shoir o'zbek millatiga xos xususiyatlarni, xalq donishmandligining ayrim epitetlari, metafora va o'xshatishlarni butun ijodi davomida faol qo'lladi.

O'ng qovog'im uchdi-yo,  
Chap qovog'im uchdi-yo.  
Uzoqdagi shoir o'g'li  
Kimning yodiga tushdi-yo.

Abdulla Oripovning ilk she'riy mashqlari 2021 yilda "Shoirning tug'ilishi" nomi ostida shoir tavalludining 80 yilligi munosabati bilan nashr qilindi. Bu to'plamdan asosan 1956-1975 yillarda yozilgan she'rlari joy olgan bo'lib, ilk she'rlarining muxlislariga taqdim etilgani bilan

qadrlidir. Shoirning dastlabki ijod daftaridan o'rin olgan she'rlarida ham xalq og'zaki ijodiga xos o'xshashlikni kuzatamiz. Masalan, "Nozli yor" she'ri xalq qo'shiqlarini yodga soladi:

Shirin soyning qovuni  
Shirin ekan, yor-yor.  
Shunday qizga ko'ngilni  
Bering ekan, yor-yor[2, 22]

"Xalqning dostonlarda mujassamlashgan ulkan ruhiy qudrati, tarixining eng sharaflilari, muqaddas an'analar va tafakkuri, tasavvuri, taxayyulotining bepoyon quvvati o'sha fursatlarda bo'lg'uvsi shoirning botini, iste'dodi bilan omuxtalashgan va Abdulla Oripov siymosida har bir xalqda vaqti-vaqti bilan maydonga chiqajak mutafakkir shoirni, dahoni uyg'otgan".[3,15]

Bundan tashqari shoir ijodida aynan yor-yor uslubidan foydalanib yozilgan, lekin ijtimoiy muammolarni bayon etgan she'rlar ham bor. Masalan, "Go'rkovlar qo'shig'i" sarlavhasidan ham qandaydir sovuq holat, noxush vaziyatni esga soladi. Fojeliqni yor-yor shaklida bera olish uchun katta mahorat kerak. She'rda go'rkov shaxsi yoki ish mazmuni emas, balki kimningdir yo'qotishini kutib yashaydigan badbin kimsalar niyati qoralanadi. Shoir she'rda ustalik bilan birinchi shaxs tili-dan so'zlaydiki, asarda o'z-o'zini fosh etish tamoyilidan bo'lak shaklni qo'llab bo'lmas edi. Ya'ni qahramonning tabiati, shoir chizmoqchi bo'lgan salbiy bo'yoq shuni taqazo etadi.

Qabristonga, demangiz, tirik keldi, yor-yor,  
Quvontirib bizlarni, o'lik keldi, yor-yor [2,197].

XX asrning 1960-1970 yillari o'zbek adabiyoti xronologik jihatdan o'rganilganda, davr she'riyatining qat'iy chegaralarini Erkin Vohidov va Abdulla Oripovlarning ijodi boshlab berganiga amin bo'lamiz. Negaki, har ikki ijodkordagi tuyg'ularning ochiqligi va samimiyligi, inson g'oyasi, adabiy-estetik mezonlar nuqtayi nazaridan konseptuallik keyingi adabiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Abdulla Oripovning she'riyatning asl tabiatiga monand millat, ona yurt, ma'naviyat ildizlari, muhabbat, imon-e'tiqod, umr mazmuniga taalluqli poetik mulohazalari kontekstida bitiklari asl poetik tafakkurni uyg'otdi. Shoirning "Soflik g'oyasi" – samimiyat, komillik, asllik kabi tushunchalari turli yillarda turli holatlarda namoyon bo'ldi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Afoqova N. Jadid she'riyati poetikasi. – T.: Fan, 2005. 67-b.
2. Oripov A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Sharq, 2019. 514-b.
3. Rayxonova M. Abdulla Oripov she'riyatida olamni idrok etish va badiiy voqelantirish tadriji: Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Qarshi, 2021. 15-b.
4. <https://postmodernism.academic.ru> Postmodernizm. Slovar terminov. — M.: INION RAN (otdel literaturevedeniya) - INTRADA. Ilin I. P.. 2001.